

“Kelajak soati” darsining 9-11-sinflar uchun mashg‘ulot ssenariysi: 33-mavzu: “Millat fidoyilari. Xotira va qadrlash”

Umumiy maqsad: Ushbu mashg‘ulot davomida 9-11-sinf o‘quvchilarining Ikkinchi jahon urushi davridagi O‘zbekiston tarixi, xalqimizning bag‘rikengligi va ajdodlarimiz matonati haqidagi bilimlarini tizimlashtirish hamda chuqurlashtirish maqsad qilingan. “Kelajak soati” formati orqali o‘quvchilar urush fojiasini shunchaki tarixiy sana emas, balki shaxsiy mas‘uliyat va bugungi tinchlikning “qiymati” (investitsiyasi) sifatida anglab yetishlariga ahamiyat qaratiladi.

Aniq maqsadlar:

1. *Bilim darajasini aniqlash:* O‘quvchilarda Ikkinchi jahon urushida O‘zbekistonning hissasi (evakuatsiya, front orti mehnati va qahramonliklar) haqidagi bilimlarning qay darajada ekanligini aniqlash;

2. *Tanqidiy va analitik yondashuv:* Urush fojiasini “yo‘qotilgan kelajak” va “insoniy kapital” tushunchalari orqali tahlil qilish, tarixiy faktlarni bugungi global tinchlik jarayonlari bilan mantiqiy bog‘lash ko‘nikmasini shakllantirish;

3. *Vatanparvarlik va mas‘uliyat:* Ajdodlar matonati (masalan, Zulfiya Zokirova yoki Shomahmudovlar oilasi) misolida o‘quvchilarda milliy g‘urur hissini uyg‘otish va ularga berilgan tinchlik omonatiga nisbatan shaxsiy daxldorlik tuyg‘usini kuchaytirish;

4. *Metapredmet bog‘liqlik:* Tarixiy ma‘lumotlarni zamonaviy diplomatiya, ilm-fan taraqqiyoti va shaxsiy rivojlanish strategiyalari bilan bog‘lagan holda, o‘quvchilarni intellektual salohiyatni oshirishga motivatsiya qilish.

Darsning kutilayotgan natijalari.

Ushbu mashg‘ulot yakunida o‘quvchilar quyidagi ko‘nikma va xulosalarga ega bo‘ladilar:

1. *Tarixiy tahlil va faktlar bilan ishlash ko‘nikmasi:*

- Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekiston xalqining ko‘rsatgan matonati (1,5 million evakuatsiya qilingan insonlar, 250 ming yetim bolalar) shunchaki raqam emas, balki milliy g‘urur manbayi ekanligini anglaydilar;
- Zulfiya Zokirova, Shomahmudovlar oilasi kabi tarixiy shaxslarning hayotiy misollari orqali “Inson qadri” tushunchasining mohiyatini ochib bera oladilar.

2. *Tanqidiy fikrlash va qiyosiy xulosa chiqarish:*

- Urushning “yo‘qotilgan kelajak” (qurilmagan uylar, yozilmagan kitoblar) sifatidagi talqinini tushunib, tinchlikning haqiqiy narxini (“Omon qolish narxi”) his qiladilar;
- Tarixiy voqealarni bugungi kun tinchligi bilan mantiqiy bog‘lab, “Ajdodlarimiz o‘z umrlarini bizning bugungi erkinligimiz uchun investitsiya qilgan” degan xulosaga keladilar.

3. *Shaxsiy mas'uliyat va motivatsiya:*

- O'zlarining bugungi darsdagi harakatlari, ta'lim olishdagi intilishlari va vaqtni qadrlashlarini – ajdodlar omonatiga sodiqlikning zamonaviy ko'rinishi ekanligini anglab yetadilar;
- “Qurol bugunni himoya qilsa, ilm ertangi kunni boshqaradi” tamoyili asosida, o'z bilimlarini yurt tinchligini asrashning eng muhim vositasi deb qabul qiladilar.

4. *Ijtimoiy va ma'naviy kompetensiya:*

- Bag'rikenglik va insoniylik kabi fazilatlarni nafaqat tarixiy meros, balki bugungi kunda jamiyatda asrab qolinishi shart bo'lgan qadriyat deb biladilar;
- Kelajakda yurt ravnaqi va xalqaro maydonda Vatan nufuzini oshirishga nisbatan shaxsiy daxldorlik hissi shakllanadi.

Metapredmet: Bu ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilimlarini faqat bitta fan bilan cheklab qo'ymasdan, turli fanlar kesimida, shuningdek, real hayotiy vaziyatlarda va ijtimoiy muhitda qo'llay olish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan yondashuvdir.

Masalan, dars jarayonida o'quvchilar tarix, adabiyot, tarbiya kabi fanlardan o'rgangan bilimlarini kundalik hayotdagi vaziyatlarda mustaqil ravishda qo'llash ko'nikmasiga ega bo'ladilar.

Dars hamkori: Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti.
<https://milliytarbiya.uzedu.uz/>

Dars davomiyligi: 45 daqiqa.

Tavsiya etilgan mashg'ulot shakli: bilim beruvchi suhbat, video parchalar va qo'shimcha materiallardan foydalanish.

Materiallar to'plami:

ssenariy;

uslubiy tavsiyalar;

videomateriallar;

interaktiv topshiriqlar;

taqdimot.

I. KIRISH. MOTIVATSION QISM (10 daqiqa)

O'qituvchi sinfga kiradi va o'quvchilarning monitorga e'tibor qaratishini so'raydi: ekranda teskari sanash taymeri 01:00 daqiqaga qo'yiladi (ekran bo'lmasa, smartfondagi taymerdan ham foydalanish mumkin). O'qituvchi 1 daqiqa o'tgunicha jim turadi, sinf ham. Faqatgina taymer 00:00 bo'lganda gapirishni boshlaydi.

O'qituvchi: Salom, aziz o'quvchilar.

Hozir bir daqiqa vaqt o'tdi. Bu vaqt ichida siz shunchaki nafas oldingiz, kimdir derazaga qarab o'tirdi, kimdir yon-atrofga qaradi. Oddiy, tinch, odatdagi bir daqiqa...

O'qituvchi doskaga "1941-yil" deb yozadi.

O'qituvchi: Bilasizmi, bundan 85 yil oldin sizdan atigi bir necha yosh katta bolalar uchun mana shu bir daqiqa tinchlikning bahosi qancha bo'lgan? Ular shu bir daqiqa badalini o'zlarining butun umri, kelajagi va orzulari bilan to'laganlar.

Tasavvur qiling, hozir sinf eshigi ochildi va 1943-yillarda yashagan, 18 yoshga endi to'lgan bir yigit kirib keldi. Uning qo'lida na smartfon, na internet, na noutbuk bor. U sizga qarab shunday deydi:

“Mening hali yashalmagan 70 yillik umrim bor edi. Men ham xuddi sendek o'qishni, sevishni, dunyoni ko'rishni xohlardim. Kel, hozir o'sha 70 yillik butun umrimni senga “sovg'a” qilib beraman. Evaziga sen menga hozirgina bekorga sarflagan o'sha 1 daqiqa tinchligingni berib tura olasanmi? Men o'sha bir daqiqada onamni oxirgi marta bag'ringa bosaman-da, keyin jangga qaytib ketaman...”

O'qituvchi: *(Sukut saqlaydi va o'quvchilarga qarab aytadi)*

Bolalar, ayting-chi, hozir kim o'zining “arzimas” 1 daqiqasini o'sha yosh jangchining 70 yillik umriga almashgan bo'lardi? Hammamiz almashardik, chunki bizdan deyarli hech nima ketmaydi!

Lekin eng dahshatli va buyuk haqiqat shundaki – U ALLAQACHON BU ALMASHUVNI AMALGA OSHIRIB BO'LGAN. U o'zining 70 yillik tinchligini, o'rganishi mumkin bo'lgan bilimlarni va qurmagan uylarini sizning bugungi mana shu 1 daqiqalik tinchligingiz uchun qurbon qilgan. Siz hozir nafas olayotgan har bir soniya – kimningdir “yashalmagan umri” hisobidan kelgan bonusdir.

Bugun sizlar bilan “Xotira va qadrlash” kuni haqida gaplashamiz.

9-may – bu shunchaki motam yoki g'alaba kuni emas. Bu – “tinchlik uchun sarflangan umrlar” kuni. Siz – o'sha yosh askarlarning eng katta va eng qimmatli investitsiyasiz. Ular sizga ishongan, sizning bugun mana shunday erkin va bilimli bo'lishingiz uchun o'z umrlarini qurbon qilishgan. Demak, ularni unutmashimiz, tinchlikning qadrini anglashimiz lozim.

Bizning mamlakatimizda tinchlikni mustahkamlash, tinchlik yo'lida jon fido qilganlarni e'zozlash an'anasi azaldan mavjud. Bunda nafaqat Ikkinchi jahon

urushida halok bo‘lganlar, umuman yurt tinchligi uchun har qanday zamonda ham o‘zini fido qilganlar eslanadi. Urush faxriylarini esa muhtaram Prezidentimiz har yili alohida e‘zozlaydilar. Bularning bari biz yashayotgan tinchlikni qadriga yetishimiz uchundir. Hozir shu haqida bir videorolik tomosha qilamiz.

Vizual kontent

Bu xotira va qadrlash tuyg‘usi

https://t.me/kelajaksoati_rasmiy/569

O‘qituvchi: Ko‘rib turganingizdek, xotira – abadiy, inson qadri – eng yuksak qadriyat. Bugun darsimiz shu haqida bo‘ladi.

II. ASOSIY QISM (25 daqiqa)

O‘qituvchi: Aziz o‘quvchilar, Ikkinchi jahon urushi yillari xalqimiz uchun shunchaki urush yillari emas, balki umumbashariy imtihon bo‘lgan.

1. O‘zbekiston – Bag‘rikenglik va Insoniylik qo‘rg‘oni

O‘qituvchi: Tasavvur qiling, 1941-yilning qahraton qishi. Toshkent vokzali. Har kuni front chizig‘idan o‘nlab poyezdlar kelmoqda. Vagonlar eshigi ochilganda, ichkaridan ko‘zlari qo‘rquvdan qotib qolgan, ochlikdan tinkasi qurigan, ust-boshi yupun minglab bolalar tushib keladi. Ularning ko‘pchiligi o‘z ismini ham eslay olmaydigan darajada kichik edi.

Keling, endi bu voqeaning miqyosini tahlil qilamiz. Urush yillarida O‘zbekiston bor-yo‘g‘i 6,5 million aholiga ega edi. Shunga qaramay, yurtimizga 1,5 million kishi evakuatsiya qilindi. Tasavvur qiling, har to‘rtta mahalliy aholiga bitta yangi mehmon to‘g‘ri kelgan!

Ularning 250 ming nafari butunlay yetim qolgan bolalar edi. Bilasizmi, o‘sha paytda o‘zbek oilalarining o‘zi ham to‘q yashamagan. Non kartochka bilan berilardi. Ammo shunga qaramay ular boshqa bolalarga ham mehr ulashishdi.

Biz avvalgi darslarimizda urush payti 14 nafar yetimni asrab olgan temirchi Shoahmad Shomahmudov va uning ayoli Bahri opa haqida gaplashgan edik. Toshkentdagi “Xalqlar do‘stligi” maydonida bu oilaga yodgorlik haykali ham o‘rnatilganini bilasiz. Ular o‘zlarining farzandlari bo‘la turib, turli millatga mansub yana 14 nafar yetim bolani asrab olishgan. Bu shunchaki yaxshilik emas, bu – millatning irodasi edi. O‘zbekiston o‘sha yillari butun dunyoga insoniylik darsini o‘tib berdi.

SAVOL: Bugungi kunda siz qanday qilib bag‘rikenglikni namoyon qila olasiz?

Bir nechta javoblar tinglanadi.

O‘qituvchi: Demak, bag‘rikenglik faqat tarixda qolib ketgan tushuncha emas. U bugun ham bizning har bir harakatimizda yashashi kerak.

2. *Qahramonlik va Shaxsiyat strategiyasi*

O‘qituvchi: Bolalar, tarix ko‘pincha raqamlar tilida gapiradi, lekin bu raqamlar ortida tirik taqdirlar bor.

Diqqat qiling: Ikkinchi jahon urushi boshlanganda O‘zbekistondan 1 million 950 ming vatandoshimiz frontga otlandi. Bu o‘sha paytdagi mehnatga yaraydigan aholining deyarli yarmi edi. Ulardan 538 mingdan ortig‘i jang maydonlaridan qaytmadi. Shu bilan birga, 450 nafardan ortiq vatandoshimiz yuksak jasorati uchun “Qahramon” unvoniga sazovor bo‘lgan.

SAVOL: Sizningcha, insonlar qahramon bo‘lib tug‘iladimi yoki vaziyat ularni qahramonga aylantiradimi?

O‘qituvchi: Keling, hozir bu savolning javobini topishga yordam beradigan bir qahramonlik hikoyasini tomosha qilamiz. Unda oddiy xalq orasidan chiqib harbiylik kasbini tanlagan va murakkab chegara hududiga o‘z ixtiyori bilan xizmatga borib, Vatan uchun jonini fido qilgan vatandoshimiz haqida so‘z boradi.

Vizual kontent

Elomon Otajonovni xotirlab

<https://youtu.be/NZ1LVprQUoA>

O‘qituvchi: Endi esa savolni takrorlayman. Sizningcha, insonlar qahramon bo‘lib tug‘iladimi yoki vaziyat ularni qahramonga aylantiradimi?

Muhokama (2 daqiqa).

O‘qituvchi: Aziz o‘quvchilar, ko‘pchiligingiz “Ilhaq” degan filmni tomosha qilgansiz. Filmda Zulfiya ona Zokirova haqida hikoya qilinadi. U Toshkent viloyatining Zangiota tumanida yashar edi. Onaxon urushga besh o‘g‘lini kuzatdi. Beshovi ham urushda halok bo‘ldi. Bir tasavvur qiling: bir emas, besh o‘g‘lining o‘lim xabarini eshitgan onaning yuragi qanday dosh bergan? Uning uyiga kelgan har bir qora xat bir umrlik motam edi. Lekin Zulfiya ona sinmadi. U barcha kelinlari bilan bir oila bo‘lib yashashda davom etdi. Bu oila o‘zbek ayollarining metin irodasi timsoli edi.

“Zulfiya onaning 5 o‘g‘li” deganda biz nimani tushunamiz? Bu shunchaki 5 ta askar emas. Bu – 5 ta qurilmagan uy, 5 ta erishilmagan orzu va 5 ta yashalmagan uzoq va baxtli hayot edi. Ular o‘z kelajagini bizning bugungi erkinligimizga almashtirishdi. Ular ko‘rmagan kelajakni bugun biz yashayapmiz.

Yurtimizda Zulfiya ona oilasining jasorati va umuman urush yillaridagi o‘zbek xalqining hayoti hamda fidoyiligini aks ettiruvchi bir maskan barpo etildi. Uning nomi “G‘alaba bog‘i”. Lekin bu bog‘ boshqa bog‘lar kabi ko‘ngilochar

maskan emas, balki ko'ngilni titratuvchi va yumshatuvchi joydir. Hozir shu maskandan tayyorlangan badiiy lashtirilgan lavhani tomosha qilamiz.

Vizual kontent

G'alaba bog'iga sochilgan maktublar

<https://youtu.be/tPb7wRCvyns>

O'qituvchi: Bugun biz shunchaki "o'lganlarni eslash" haqida emas, yashalmagan umrlar oldidagi mas'uliyatimizni anglash haqida gaplashyapmiz. Siz bugun yaxshi o'qimasangiz, vaqtingizni bekorga sarflasangiz, o'sha 538 ming insonning qurbonligini qadrsizlantirgan bo'lasiz. Chunki ular sizni "yaxshi yashasin, buyuk bo'lsin" deb o'limga tik borishgan.

3. Zamonaviy diplomatiya: Tinchlik – oliy sarmoya

O'qituvchi: Aziz o'quvchilar, biz yuqorida urush dahshati va ajdodlarimiz matonati haqida gaplashdik. Endi savol tug'iladi: bugungi zamonda tinchlikni qanday asrash mumkin? Faqat qurol bilanmi? Sizningcha, bugungi dunyoda tinchlikni asrovchi kuch nimada? Kelinglar, shu masalani ikki guruhga bo'linib muhokama qilib ko'ramiz.

Debat: "Tinchlikni asrashda eng katta kuch nima?"

O'qituvchi: Sinfni ikki guruhga bo'lamiz. Sizlar bir savol bo'yicha ikki xil pozitsiyani himoya qilasiz.

Savol: **"Tinchlikni asrashda qaysi kuch muhimroq?"**

Guruh pozitsiyalari

1-guruh: "Tinchlikni asrashda eng katta omil – harbiy kuch va xavfsizlik"

2-guruh: "Tinchlikni asrashda eng katta omil – bilim, tafakkur va tarbiya"

O'qituvchi: Har bir guruh 2-3 ta aniq dalil topadi, hayotiy yoki tarixiy misol keltiradi, o'z pozitsiyasini bitta kuchli fikr bilan yakunlaydi.

Eslatma: sizlar meni ishontirishingiz kerak.

Debat jarayoni

1-bosqich: Chiqishlar (har bir guruhga 2 daqiqa)

Guruhlar o'z fikrini bayon qiladi.

2-bosqich: Qarshi savollar (1-2 daqiqa)

Har bir guruh raqibiga savol beradi.

3-bosqich: Yakuniy so'z (har biriga 1 daqiqa)

Eng kuchli argument bilan yakunlaydi.

O'qituvchi: Hozirgi dunyo iqtisodiyoti va siyosatida kutilmagan bir formula bor: har 1 dollarlik harbiy qurolga qarshi 10 dollarlik intellektual salohiyat, ya'ni ilm turadi. Bu nima degani? Bu dunyoni endi miltiq ushlagan askar emas, balki kashfiyot qilgan olim, kuchli diplomat va kreativ fikrlaydigan yoshlar boshqaradi deganidir.

Diplomatiya – bu urushda g'alaba qozonish emas, balki urushni boshlamaslik san'atidir.

Nega dunyoning eng rivojlangan va kuchli davlatlari ilm-fanga trillionlab sarmoya kiritadi? Javob oddiy: qurol faqat bugunni (chegarani) saqlashi mumkin, lekin ilm ertangi kunni (kelajakni) asraydi.

Shu o'rinda shoir Shodmonqul Salomning bir she'rini eslash lozim: she'r hammamizni tinchlikni qadrlashga undaydi. Monitorga qaraymiz.

Vizual kontent

“Urush va tinchlik” – Shodmonqul Salom

<https://youtu.be/26egyTi6i0k>

III. YAKUNIY QISM (10 daqiqa)

O'qituvchi: Aziz o'quvchilar, bugun biz darsimiz davomida vaqt qadri, millatimizning buyuk bag'rikengligi va qahramon ajdodlarimiz haqida gaplashdik. Endi darsimizdan eng muhim xulosani chiqaramiz: Tarixni sharoit emas, jasoratli shaxslar yaratadi. Urush – dahshatli bir vaziyat edi. Lekin o'sha vaziyatdan kimdir qo'rqib qochdi, kimdir esa Vatan uchun jonini tikdi.

Siz – bugun mana shu sinfda o'tirgan yoshlar – o'z kelajagini qurbon qilgan askarlarning dunyodagi eng katta va eng qimmatli yutug'isiz. Ular o'zlarining amalga oshmagan orzularini, qurilmagan uylarini va yashalmagan 70 yillik umrlarini sizga hadya qilishdi. Sizning bugungi har bir nafasingiz, imkoningiz va yutug'ingizda tinchlikni himoya qilib turgan askarlarimiz va bu yo'lda jon bergan qahramonlarimizning hissasi bor.

Aynan shu haqiqatni insoniyatga anglatish, urushlarning takrorlanmasligi uchun odamlarda tinchliksevarlikni tarbiyalash uchun iste'dodli yozuvchilar asarlar yozishgan. Bu mavzudagi har bir durdona asarning xulosasi tinchlikni qadrlashga o'rgatadi. Hozir shunday asarlardan parchalar o'qilgan videoni tomosha qilamiz. Bu asarlarni albatta o'qing – tinchlikning qadrini tushunasiz.

Vizual kontent

“Urush va tinchlik” kutubxonasi

<https://youtu.be/9sLylkUG4XE>

O'qituvchi: Qadrli o'quvchilar. Xotira – bu shunchaki eslash emas, xotira – bu mas'uliyatdir. Shu mas'uliyatni his qilib yashang.

Shu bilan darsimiz o'z nihoyasiga yetdi. Xayr, salomat bo'ling!

*Qarshi Davlat Universiteti, Xorijiy tillar fakulteti talabasi Nusratova Mahbuba
Usmonxon qizining ssenariysi asosida tayyorlandi.*